O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 7 - sentabr 220-10-212-Q/23 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 21-avgustdagi “Iqlim o‘zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy harakatlar rejasini ishlab chiqish hamda samarali amalga oshirishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 399-10-0-Q/23 qarori to‘g‘risida

Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 21-avgustdagi 399-10-0-Q/23 qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risi”dagi Qonunning 6-25-moddalariga asoslanib, **qaror qilaman:**

1. **Toshkent viloyati hokimining 2023-yil 21-avgustdagi 399-10-0-Q/23 qarori** ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yuqoridagi qaror bilan quyidagilar inobatga olinsin.

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi 436-son qarori bilan tasdiqlangan 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash bo‘yicha harakatlar rejasining 10-bandida iqlim o‘zgarishi va tabiiy ofatlar xavfiga nisbatan milliy javob choralarini ishlab chiqish va amalga oshirishning smarali normativ-huquqiy va institutsional bazasini mustahkamlash nazarda tutilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

2023-2030-yillarda tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga chidamlilikni oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy harakatlar rejasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 1-ilovaga muvofiq;

2023-2030-yillarda tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga chidamlilikni oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy harakatlar

rejasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” (keying o‘rinlarda – “yo‘l xaritasi”) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

-Quyidagilar Milliy harakatlar rejasini amalga oshirish doirasida ustuvoryo‘nalishlar etib belgilanganligi:

tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga chidamlilikni oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

aholining tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga chidamlilikni oshirish borasidagi bilim va tajribalarini shakllantirish;

tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga chidamlilikni oshirish tadbirlarini moliyalashtirishni tashkil etish;

tabiiy ofatlar yo‘y berganda harakat qilishga tayyorgarlik darajasini oshirish ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman FVB U.Maxamatjonov tegishli tashkilot va korxonalar, Mahalla raislari bilan birngalikda:

iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish bo‘yicha hududiy va mahalliy darajada tadbirlarni belgilashda, namunaviy rejalar asosida mahalliy obyektlar uchun tadbirlar rejasini ishlab chiqsin.

mahallalarda ish bilan band bo‘lmagan aholi, xususan, imkoniyati cheklangan fuqarolar bilan tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishi sharoitida to‘g‘ri harakat qilish bo‘yicha uchrashuvlar va seminar-treninglar o‘tkazsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari S.Mirsagatov hamda tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshlig‘i U.Maxamatjonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**

Toshkent tuman hokimining
2023-yil 7-sentabrdagi
220-10-212-Q/23-son qaroriga
1-ilova

2023-2030-yillarda tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga chidamlilikni oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy harakatlar rejasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasisi’

t/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbaalari	Mas’ul ijrochilar
1. Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga chidamlilikni oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish					

1	Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish o‘yicha hududiy va mahalliy darajada tadbirlarni belgilash va amalga oshirish	1. Oxirgi 5 yilda (hududlar kesimida) iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq tabiiy ofatlar rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari va ko‘lamlarini tahlil qilish. 2. Iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish bo‘yicha hududiy va mahalliy darajada namunaviy rejalarni ishlab chiqish va tasdiqlash. 3. Normativ-texnik hujjat loyihasini Adliya vazirligidan ro‘yxatdan o‘tkazish. 4. namaunaviy rejalar asosida hududiy, mahalliy va obyektlar uchun tadbirlar rejasiniishlab chiqish va amalga oshirish	2024-yil 1-mart	Mablag‘ talab etilmaydi	Viloyat hokimligi, Viloyat FVB

2.	Aholi punktlari va shaharlar barqaror rivojlanishiga kompleks va yahlit yondashuvni amalga oshirish yuzasidan standart ko‘rsatkichlarni joriy etish.	1. “Jamiyatning barqaror rivojlanishi. Shahar xizmatlari va hayot sifati ko‘rsatkichlari” xalqaro standartlarini (ISO 37120:2018 “Sustainable cities and communities – Indicators for city services and quality of life”, IDT) mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda o‘rganib chiqish va takliflar ishlab chiqish. 2. viloyatda “Jamiyatning barqaror rivojlanishi. Shahar xizmatlari va hayot sifati ko‘rsatkichlari” xalqaro standartlarini (ISO 37120:2018 “Sustainable cities and communities – Indicators for city services and quality of life”, IDT) joriy etish.	2024-yil martdan boshlab	Mablag‘ talab etilmaydi	Viloyat hokimligi, Viloyat FVB

2. Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga chidamlilikni oshirish borasidagi bilim va tajribalarni shakllantirish					
3	Davlat boshqaruv organlari mansabdor shaxslari va aholining barcha qatlamlarining tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga chidamlilikni oshirish masalalari bo‘yicha ma’lumotga egaligi va xabardorlik darajasini oshirish, shuningdek, ularga bilim berish va o‘qitish	Mahallalarda ish bilan band bo‘lmaganaholi, xususan, imkoniyati cheklangan fuqarolar bilan tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishi sharoitida to‘g‘ri harakat qilish bo‘yicha uchrashuvlar va seminar-treninglar o‘tkazish	Doimiy	Mablag‘ talab etilmaydi	Viloyat hokimligi, Viloyat FVB

Toshkent tuman hokimining
2023-yil 7-sentabrdagi
220-10-212-Q/23-son qaroriga
2-ilova

2023-2030-yillarda tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga chidamlilikni oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy harakatlar rejasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasisi’

t/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbaalari	Mas’ul ijrochilar
1. Tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga chidamlilikni oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish					